



MILLIY OZODLIK HARAKATI DAVRIDA JADIDLARNING PEDAGOGIK QARASHLARI

Gulboyev Husan Shokir og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7758772>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16- mart 2023 yil
Ma'qullandi: 18-mart 2023 yil
Nashr qilindi: 22-mart 2023 yil

KEY WORDS

*Jamiyat va boshqaruv,
Padarkush, Tarbiyayi atvol,
Usuli savtiya, Oina jurnali.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada milliy ozodlik harakatlarida faoliyat yuritgan jadidlarning ta'lim sohasidagi islohotlari, ijtimoiy ong shaklining oshirilishidagi g'oyalar va ularning amaliyoti yuzasidan fikr va mulohazalar keltirilgan. Maqola yangi usul maktablarining o'ziga xosligi va darsliklarining ahamiyati haqidadir.

XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududida milliy ozodlik harakatining rivojlanishi kuzatila boshlandi. Shu bilan birga xalqning yashash sharoitlarini yaxshilash, chet el davlatlarining illor tajribalaridan foydalanish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Ushbu davrda O'rta Osiyo hududida xonliklar asoratining mavjudligi va shu asorat yordamida milliy mafkuraning istiqlol g'oyalari bilan boyitilishi jadidlar faoliyatining asosini tashkil etadi. Jadidlar ozodlikka erishishning yagona yo'li sifatida milliy ongni o'stirish hamda ushbu vazifaning bajarilishida "Usuli savtiya" yangi usul maktablarining ochilishi bilan belgilaydilar. Turkiston, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarda dastlabki yangi usul maktablarining ochilishi, keyinchalik esa Tarbiyayi atvol maxfiy majimiyatining ochilishi ham o'z davrining ahamiyatli boqealaridan biridir.

Jadidlar turli sohalarda yangiliklar qilishga intilishar edi. Shu boisdan amalga oshirilayotgan har qanday islohotning asosiy maqsadi xalq manfaati va ozodlikka qaratilgan bo'lib, ushbu yo'lda teatr truppalari, kutubxonalar, jamoat birlashmalari, gazeta va jurnallar shular jumlasidandir. 1913- yilning 20-avgustidan boshlab chop etila boshlagan "Oina" jurnali Turkiston to Turkiyaga qadar tarqala boshlandi. "Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligida faoliyat yuritayotgan ushbu jurnalning birinchi sonida "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqolaning chop etilishi ham davlat, jamiyat hayotida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham, jadidlar bilim olish, til o'rganish kabi sohalarga qat'iy e'tibor qaratish lozim ekanligini yaxshi anglaganlar. Shu boisdan ham "Oina" jurnalining 1914-yil 35- sonida "Har millat o'z tili ila iftixor etar", 1915-yil 11-, 12- sonlarida "Til masalasi" kabi maqolalarning chop etilishi ham yuqoridagi fikrlarni dalillaydi. Jadidlardan Munavvarqari Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy kabilar "Tarbiyayi atvol" va shu kabi jamoat birlashmalarida faollikni ta'minlab turdilar. Xiva jadidchilarining aksariyat faollari xon hokimiyatining saqlangan holatda islohotlarni amalga oshirish takliflarini ilgari surishgan. Xiva xonligi hokimiyatida faoliyat yuritib keluvchi mas'ul shaxslar faqatgina madrasada emas balki, yangi usul maktablarida ha tahsil

olmoqlari lozim ekanligi oshkora haqiqatlarga aylangach, xon huzurida faoliyat yurituvchi dodxoh, parvonachi, Qozi kalon kabi mansab egalarining ham e'tiborini torishiga olib keldi. Jamiyat va millatning keng tarzda farovonlikka yuz tutishida adabiyot va badiiy asarlar, drammlar, teatr truppalarning o'rni katta bo'lib, ochiqdan-ochiq oina bo'lib xizmat qilar edi. Shuning uchun ham o'sha davr muhiti, tarixiy haqiqatlari, xonliklar yurishlari, ijtimoiy siyosiy tuzum, milliy ozodlik harakati ruhining o'sha davr muhitida yaratilgan asarlarida ham sezilib turadi. "Amerikalik olim Edvard Olvortning fikricha, o'sha davrda yaratilgan boshqa dramalar Behbudiyning "Padarkush"i kabi muvafaqqiyatli chiqmagan. Asar diologlaridagi ayrim detallar muallif fikrini ifodalashda kalit vazifasini bajaradi".[1] Rustam Sharipovning "Turkiston Jadidchilik harakati tarixidan" nomli asarida jadidchilik harakatlarining geosiyosiy ahamiyati, milliy ozodlik yo'lida amalga oshirilgan turli pedagogik islohotlar, o'tgan davr siyosiy masalalarining ham tub mohiyatini yechishda, o'rganib tahlil etishda ham o'ziga xos manba bo'lib xizmat qiladi. Jadidlarning amaliyotiga tarixiy jihatdan nazariyalar bilan yondashish "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti", "Siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi" kabi sohaviy yo'nalishlarning keng tarzda tatbiq etilishida jadidlar faoliyatining siyosiy ahamiyati, milliy ozodlik harakati yo'lidagi pedagogik islohotlari katta manba bo'lib xizmat qildi. Jadidlarning amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar konsepsiyasi rasmiy jihatdan mavjud bo'lmasda g'oyaviy maqsad bitta edi".[2] Bosh maqsad Turkiston hududida mustaqil davlat tuzish bo'lib, quyidagicha vazifalar mavjud edi. Ular:

-jamiyatning mustaqilligiga erishish. Ushbu yo'lda milliy ozodlik harakatlari faollarining mavjud barpo etiladigan davlat boshqaruvini ta'minlash;

-Turkistonning mustaqil demokratik zaminga aylanishida islohotlarning davomiy o'tkazilishi;

-maorif va san'at sohalarning rivojlanishi, ta'limiy maqsadlarning amaliyotini ta'minlash va boshqalar. Bilamizki, o'tgan asrning 20- yillarida jadidlar faoliyatiga nisbatan qiziqish, tahliliy fikrlar nazariyalar kuchaya bordi. Jadidlarning ayni islohotlarining tub mohiyati milliy mustaqillik bo'ladigan bo'lsa, ayni shu masalaning yechimi sifatida milliy va chet tillarini yaxshi bilish deya qaralgan. Shu boisdan ham Turkiyaning forifununlariga talaba yoshlarni tahsil olish uchun yuboradilar. Mavjud qarashlar, pedagogik islohotlarning til bilan bog'lanishi ham bejiz emas, albatta. Buning sababi Rus bosqini asoratida ijtimoiy jamiyat, lavozimlar, mas'ul kishilarning ish faoliyati rus tilida yuritila boshlanishi oddiy xalq uchun tushunarsizlik va norozilikni keltirib chiqaruvchi asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun ham jadidlar va jadidlarni qo'llab quvvatlovchi avom xalq til islohotlariga yaxshi munosabatda bo'lishgan. "Bizning Turkiy tili Rusiyada Rus tili bilan bir darajada huquqli sanalur. Bu esa bizning tilimizning:

a) butun maktablarda;

b) mahkamalarda;

c) idora ishlarida iste'mol etiluvchi bilan vujudga chig'or". [3]

Jadidlarning g'oyalari teatrlar sahnalarida namoyon bo'loshi misoli oyna tarzda tomoshabinga yetib boruvchi dasturiy manba bo'lib xizmat ko'rsatgan. Jadidlar ma'naviyati mustahkam, vatan ravnaqi yo'lida xizmat ko'rsatishga qodir yoshlarnin tarbiyalash, savodli qilish masalalariga yechimni oiladan izlamiq lozim degan fikrga kelishgan. Jadidlar ichida o'zining ilmiy salohiyati va faolligi bilan ajralib turgan Abdurauf Fitratning 1914, 1915- yillarda nashr etilgan "Oila" kitobi jadidlar ichida katta yangiliklardan biri bo'lib xizmat qildi. Vaqtli matbuot

orqali xalqning bilim darajasini oshirish, jadidcha filrlarning namoyon bo'lishi, oilaga nisbatan qarashlarning yanada rivojlanishida "Oila" kitobi hamda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Oina" jurnali katta manba vazifasini o'tadi deyish mumkin. "Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq".[4].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jadidlar faoliyatining geosiyosiy ahamiyati va qolaversa, milliy ozodlik harakati g'oyalarining ta'limiy islohotlar bilan chambarchas tarzda amalga oshirilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Jadidlar faoliyatida yangi usul maktablarining joroy etilishi, kitob va kitob vositalarining, teatr truppa va dramalarining ahamiyati oddiy xalqning bilim darajasini yuksaltirishda katta manba bo'lib xizmat qildi. Yangi usul maktablarida diniy, dunyoviy bilimlarning berilishi, ushbu sohada chet el tajribalaridan unumli foydalanishning ham ahamiyati katta ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoshlar ishlari agentligi Jadidlar "Mahmudxo'ja Behbudiy". Toshkent:. Yoshlar nashryot uyi- 2022
2. Rustam Sharipov O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat Yuridik instituti. "TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI TARIXIDAN". TOSHKENT:. "O'QITUVCHI" 2002.
3. "Jamiyat va boshqaruv" jurnali, 1997, 2-son
4. Abdurauf Fitrat. "Oila yoki oila boshqarish tartiblari". Toshkent. "Ma'naviyat", 2000.

INNOVATIVE
ACADEMY